



UNIVERSAL INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

Homepage of the Journal <https://universaljournal.uz>

UNIVERSAL INTERNATIONAL
SCIENTIFIC JOURNAL

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2026 Issue: 3 Volume: 2

Published: 02.02.2026
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF
ZENODO
RESEARCHGATE
SJIF
INDEX COPERNICUS
RESEARCHBIB

MUMTOZ ADABIYOTDA TASAVVUFİY LEKSIKA VA ARABIY O‘ZLASHMALARNING STILISTIK VAZIFALARI

Abdullo Ubaydullayev

Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası o‘qituvchisi

Uzbekistan

✉ ou@edu.uz

Article Info

10 January 2026

Accepted:

17 January 2026

Available Online:

02 February 2026

Copyright © 2025 by author(s) and
Scientific Research Publishing Inc.

This work is licensed under the
Creative Commons Attribution
International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Language: Uzbek

Citation:

Ubaydullayev, A. (2026).
STYLISTIC FUNCTIONS OF
SUFICIAL LEXICAN
VOCABULA AND ARABIC
ADAPTATIONS IN
CLASSICAL LITERATURE.
Universal International Scientific
Journal, 3(2), 28–31. Retrieved
from

<https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/3922>

Annotatsiya:

Maqolada Alisher Navoiyning “Nasoyimu-l-muhabbat” asari til birliklarining uslubiy funkcionallashuvi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda asarning Abdurahmon Jomiy “Nafahot ul-uns min hazarotu-l-quds” tazkirasiga ijodiy munosabati, manba asosida qayta ishlanishi va mustaqil badiiy-tazkira tizimiga aylanish jarayoni yoritiladi. Asar tarkibidagi shayxlar ro‘yxatining 616 tadan 770 tagacha kengaytirilishi, turkiy hamda hind mashoyixi haqidagi ma’lumotlarning kiritilishi matnning janriy va mazmuniy yangilanishini ko‘rsatadigan dalil sifatida talqin etiladi. Ishda arabiy o‘zlashmalar ulushi, ularning sinonimik munosabatlarda ishtiroki, monosemantik va polisemantik qatlamlarning qo‘llanish xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, parsellyatsiya hodisasi asarda kommunikativ-ekspressiv maqsadga xizmat qiluvchi sintaktik usul sifatida ko‘rib chiqilib, dialogik nutqning jonliligi, urg‘u va ta’kidlash mexanizmlarini kuchaytirishi misollar asosida izohlanadi.

Kalit so‘zlar:

Alisher Navoiy, Nasoyimu-l-muhabbat, tazkira, tasavvuf, Jomiy, Nafahot ul-uns, arabiy o‘zlashmalar, sinonimiya, monosemantik, polisemantik, parsellyatsiya, dialogik nutq, stilistika.

Аннотация:

В статье анализируется произведение Алишера Навои «Насайиму-ль-мухаббат» с точки зрения стилистической функционализации языковых единиц. Исследование освещает творческий подход произведения к комментарию Абдурахмона Джами «Нафахот уль-унс мин хазароту-ль-

кудс», его обработку на основе источника и процесс трансформации в самостоятельную художественно-комментаторскую систему. Расширение списка шейхов в произведении с 616 по 770 год, включение информации о тюркских и индийских машайихах интерпретируются как свидетельство жанрового и содержательного обновления текста. В произведении определяется доля арабских заимствований, их участие в синонимических отношениях, а также особенности использования моносемантических и полисемантических слоев. Кроме того, в работе феномен сегментации рассматривается как синтаксический метод, служащий коммуникативно-выразительной цели, и на примерах объясняется его способность оживлять диалогическую речь, а также механизмы ударения и акцентирования.

Ключевые слова:

Алишер Навои, Насойум-ль-мухаббат, тазкира, суфизм, Джами, Нафахот уль-унс, арабские заимствования, синонимия, моносемантический, полисемантический, сегментация, диалогическая речь, стилистика.

Abstract:

The article analyzes Alisher Navoi's work "Nasayimu-l-muhabbat" from the point of view of the stylistic functionalization of language units. The study highlights the creative attitude of the work to the commentary "Nafahot ul-uns min hazarotu-l-quds" by Abdurakhmon Jami, its processing based on the source, and the process of its transformation into an independent artistic-commentary system. The expansion of the list of sheikhs in the work from 616 to 770, the inclusion of information about Turkic and Indian mashayikhs are interpreted as evidence of the genre and content renewal of the text. The work determines the share of Arabic borrowings, their participation in synonymous relations, and the features of the use of monosemantic and polysemantic layers. Also, the phenomenon of parcellation is considered as a syntactic method serving a communicative-expressive purpose in the work, and its enhancement of the liveliness of dialogical speech, stress and emphasis mechanisms are explained on the basis of examples.

Keywords:

Alisher Navoi, Nasoyum-l-muhabbat, tazkira, Sufism, Jami, Nafahot ul-uns, Arabic borrowings, synonymy, monosemantic, polysemantic, parcellation, dialogical speech, stylistics.

Alisher Navoiyning asarlari ham tilshunoslar, ham adabiyotshunoslar tomonidan keng o'rganib kelinmoqda. Alisher Navoiy asarlarining fonetik qurilishi A.Rustamov, leksikasi B.Bafojev, sintaktik qurilishi S.Ashirboyev va I.Azimovlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, kelgusida adib asarlari tilshunoslikning barcha sathlari yuzasidan tadqiqot obyekti bo'lishi, shubhasiz.

Alisher Navoiy hayoti davomida qo'plab nazmiy va nasriy asarlar yaratdi. Uning ijodiga tegishli nasriy asralarini mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, shartli ravishda quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

1. Tasavvufiy asarlari.

2. Ilmiy-filologik asarlari.

3. Tarix va iqtisodga oid asarlar.

Alisher Navoiyning "Nasoyimu-l-muhabbat" (to'liq nomi "Nasoyimu-l-muhabbat min shamoyilu-l-futuvvat" – "Mardlik xushbo'yliklarini taratuvchi muhabbat shabadalari") asari 1495-96 yillarda yaratilgan bo'lib, Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns min hazarotu-l-quds" ("Do'stlik tarovati") asarining ijodiy tarjimasidir.

Asarning tanqidiy matni muallif yashagan davrda ko'chirilgan nusxa asosida 1996-yil Turkiya (Anqara)da Kamol Eraslon tomonidan yaratilgan. 201-yil navoiyshunos olim

H. Islomov ham mazkur asarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratib, chop qildirdi.

Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarida 616 ta shayx haqida ma’lumot keltirilgan. Hazrat Navoiy bu ma’lumotlarni qayta ishlab, to’ldirib, shayxlar sonini 770 taga etkazadi, ulardan 35 tasini avliyo ayollar tashkil etadi.

“Nasoyimu-l-muhabbat” muqaddima (hamd, na’t va asar yozilish sababi, “Bu toifa muqaddima tamhidi”, “Bu toifa a’molu af’oli va muomilatu riyozotidin ba’zini zikr qilmoq”), 770 shayx zikrini o’z ichiga olgan asosiy qism va xotimadan iborat.

Hazrat Navoiy asarning yozilish sabablari haqida to’xtalar ekan, Jomiy va o’z tazkisasi o’rtasidagi farqlarni aytib o’tadi. Unga ko’ra:

“Nafohatu-l-uns”da Farididdin Attorning “Tazkiratu-l-avliyo” asaridagi ba’zi avliyolar tushirib qoldirilgan, Navoiy esa ularni o’z tazkirasida zikr qilgan.

Jomiyda hind va turk mashoyix (shayx)lariga keng o’rin ajratilmagan, lekin hazrat Navoiy mumkin qadar ularning barchasini o’z asarida aks ettiradi.

Shuningdek, shoir “Nasoyimu-l-muhabbat”da Abdurahmon Jomiy va uning zamondoshi bo’lgan valiy zotlar hayoti va faoliyatini ham yoritganini ma’lum qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy nafaqat adabiyotshunos, balki tilshunos olim sifatida ham namoyon bo’ladi. Uning so’z qo’llash mahorati, umumxalq tiliga bo’lgan munosabati boshqa mutafakkirlar ijodida bu qadar yuqori darajada sezilmaydi.

Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asarida qo’llangan so’zlarning kami 55-65% foizini arabiy o’zlashmalar tashkil etadi.

Asardan keltirilgan arabizmlar leksemalarning ma’no munosabatiga ko’ra o’zaro sinonimik qator, sinonimiya hodisasiga kirashadi. Biroq leksemalarning semantik

tarkibiga ko’ra, monosemantik va polisemantik so’zlar sanaladi.

“Nasoyimul muhabbat” asarida qo’llangan arabizmlar ichida joy ma’nosini anglatgan (marg’inoniy – marg’ilonlik), martaba va daraja nomini anglatuvchi (shayx, mujtahid (jiddu jahd qiluvchi, say’-g’ayrat bilduruvchi, din allomasi), muzayyin (ziyat beruvchi, bezovchi), kishi ism va tahalluslarini anglatuvchi, mavlono (– ulug’, buyuk, sohib, ustod), joy nomlarini anglatuvchi arabizmlar bir ma’noli – monosemantik so’zlar sanaladi.

Asarda qo’llangan bir ma’noli - monosemantik arabizmlarning qo’llanilish chastotasi ko’p ma’noli - polisemantik arabcha o’zlashmalarining qo’llanilish chastotasiga nisbatan pastroq ekanligi aniqlandi.

Asarda ko’p ma’noli - polisemantik so’zlarning qo’llanilishi esa, albatta, Alisher Navoiyning so’z qo’llash mahoratining buyukligi, betakrorligini isbotlaydi va uni tilshunos Abdulhamid Nuromonov, N. Sayidiraximova lar ta’biri bilan aytganda, “buyuk tilshunos olim” ekanligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, asarda Alisher Navoiy tasavvufiy tushunchalarni anglatgan atamalardan juda ko’p qo’llanganini ko’rishimiz mumkin. Mazkur holat esa Navoiyning tasavvuf tariqati, tasavvuf ilmining vakili, bilimdoni, uning rivoji va takomili uchun salmoqli hissa qo’shgan asarda o’zi keltirgan avliyo va shayxlar qatoridagi buyuk inson ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asari yuqorida ta’kidlaganimizdek, Jomiyning asari asosida yozilgan bo’lib, uni jiddiy o’rganish jarayonida o’ziga xos tili va uslubi, bayoniga egaligi, individuallikka ega deya aniq fikrga kelishimizga sabab bo’ldi.

Uning asarlarida endi, til birliklarining funksionallashuvi, uslubiy xoslanishi, uslubiy

imkoniyati, balog'ati mutlaqo boshqacha tusda ifoda etila boshlaydi.

Masalan, Mahbub deganda Xudoni, Payg'ambari, Pirni va sevgan kishisini anglash; soqiy deganda ham ayni shu to'rt tushunchani e'tiborga olish, lab deganda pirning so'zini, ilohiy fayzni; qosh deganda ilohiy olam bilan moddiy olam chegarasini; bel deganda komil inson xayolini, ingichka bel deganda komil inson xayolining nozikligini; ko'z deganda komil insonning o'zini nazarda tutish kabi timsollarni anglamay, so'fiyona she'rni anglash mumkin emasligi ayon bo'ldi.

Ta'kidlash o'rinliki, "Nasoyimul muhabbat" asarining amaldagi (kirill) yozuvga o'girilgan akadernashrida asosiy gap va parsellyat orasida, asosan, vergul qo'yilgan. Masalan: Shayx ul-islom debdurki, Shayx Abu

Buxorog'a bordi, ani ko'rgali (297). Bir o'rindagina nuqta qo'llangan.

Masalan: O'tar chog'da dedi: Ilohi, xalqni sanga dalolat qildim jahd bila va o'zumga qila olgancha, jafu qildim. Saning uchun (100).

Alisher Navoiy mazkur asarda dialogik nutqlardan keng foydalangan va ularning tarkibida parsellyatlarni unumli qo'llagan. Bu usul bayon qilinayotgan voqea-hodisalarning jonli tarzda kechishi, kitobxonda suhbatdoshlarning jonli ishtirokchi ekanligi haqidagi tasavvurni uyg'otadi. Bu o'z o'rnida badiiy matnning estetik ta'sirchanligi uchun juda ham muhimdir. Dialoglardagi sintaktik konstruksiyalar, tabiiyki, muallifning turli poetik, stilistik niyatlarini ifodalash, mantiqiy ta'kidlash, ekspressiyani kuchaytirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 17-жилд: Насойим-ул мухаббат. -Тошкент: Фан, 2001.
2. Ubaydullaev Abdulloh Khabibullo ugli. (2024). LEXICO-SEMANTIC ANALYSIS OF UNIMEANOUS AND POLYMEANOUS ARABIC WORDS IN "NASOIMU-L MUHABBAT". *European International Journal of Pedagogics*, 4(12), 99–104. <https://doi.org/10.55640/eijp-04-12-21>
3. Ubaydullaev , A. (2024). ARABISM OF ALISHER NAVOI'S WORK "NASAIMU-L MUHABBAT". *Академические исследования в современной науке*, 3(17), 36–39. извлечено от <https://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/15722>
4. Sirojiddin Sotvoldiev. (2024). AUTOANTONYMY AND ENANTIOSEMY: A COMPARATIVE LINGUISTIC ANALYSIS OF OPPOSITIONAL MEANINGS IN LANGUAGE. *American Journal of Philological Sciences*, 4(12), 125–129. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume04Issue12-22>
5. Sirojiddin Sotvoldiyev. (2023, June 26). ARAB LEKSIKOGRAFIYASI TARIXI VA IBN MOLIK MUSALLAS LUG'ATLARINING TUZILISH PRINSIPLARI. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, London, United Kingdom. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8080680>